Qoraxoniylar davriga tegishli yana bir arxeologik yodgorlik

O’zR FA Milliy arxeologiya markazi, Ohangaron arxeologik ekspeditsiyasi 2020-yilda t.f.n. S.R. Ilyasova boshchiligida Shoabdumalik-ota (Shodmalik-ota) mozori yonidagi shahar xarobalarida arxeologik izlanishlarini davom ettirdi. Arxeologik izlanishlar “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg’armasi Toshkent bo’limi tomonidan moliyalashtirildi.

Shoabdumalik-ota mozoridan janubi-sharqda joylashgan tepalik qismida 7x5 m o’lchamida qazish ishlari olib borilib, tadqiqot natijasida qiziqarli ma’lumotlar qo’lga kiritildi. Arxeologik qazuv hududida yirik turar-joy inshootining bir qismi ochib o’rganildi. Turar-joy inshooti paxsa va xom g’ishtdan qurilgan bo’lib, aftidan uy hammomi vazifasini bajargan. Qazib o’rganilgan turar-joy xonalaridan birida (1-xona) pol va o’rindiqlar pishgan g’isht hamda ichki qismlari ganch bilan qoplanganlik holati bundan guvohlik beradi. Birinchi xonadan shimoli-g’arbda yana bir nechta xona bor bo’lib, ushbu xonalarning qanday vazifani bajargani keyingi izlanishlar natijasida aniqlanadi.



Interer tuzilishi uchinchi xonaning ikki qismdan iborat bo’lganini ko’rsatmoqda. Ushbu xona yuvinish jarayonidan keyin dam olish uchun mo’ljallangan bo’lib, devorga taqab pishiq g’ishtdan qurilgan supa shundan dalolat beradi. Supaga qarama-qarshi holda xom g’ishtdan gofralar bilan bezalgan ustun tiklangan. Bu hududda pol qismi yirik pishirilgan plitkalar bilan qoplangan, uning shimoli-sharqiy qismi yog’och eshik bilan ajratilgan va pol qismi mayda o’lchamdagi pishgan g’isht bilan qoplangan. Ushbu xonada uzoq vaqt davomida olov yonib turgan bo’lib, yong’indan so’ng u ko’mib tashlashgan. Topilgan sopol buyum parchalari ushbu inshootning XI asrga tegishli ekanini ko’rsatmoqda.

Madaniy qatlamlarning keng hududga yoyilgani arxeologik va arxitektura qoldiqlari ushbu yodgorlik o’rnida bir vaqtlar yozma manbalarda eslab o’tilgan o’rta asrlar Iloq shaharlaridan biri joylashgan, degan xulosa chiqarish imkonini beradi.